


90. Bir xonali sonlarni 1 ga ko'paytirish

Yondosh mavzu:
do'stlik.

1 soni,
qo'shish komponentlari.



Ortiqcha shaklni toping.



1. Ifodalardan qaysi birini qo'shiluvchilar yig'indisi ko'rinishida tasvirlab bo'lmaydi? Nima uchun?

$1 \cdot 4$

$1 \cdot 3$

$5 \cdot 1$

2. Ifodalarni yozing va hisoblang.


a) Diyor do'stlari uchun bir qutidan sharbat sotib oldi. Agar Diyorning 7 nafar do'sti bo'lsa, u necha quti sharbat sotib olgan?

b) Malika dugonalari uchun 2 tadan konfet tayyorlab qo'ydi. U 5 nafar dugonasi uchun nechta konfet olgan?

d) Konsertda 3 qo'shiqchining har biri 5 tadan qo'shiq kuyladi. Konsertda jami nechta qo'shiq kuylangan?

e) Ikki do'stdan har biri 4 bo'lakdan bo'r keltirdi. Ular jami qancha bo'r keltirgan?

3. Sonli nurdan foydalanib, qolgan ko'paytmalarni toping.



4. Hisoblang va taqqoslang.

$4 \cdot 1$

$4 \cdot 2$

$7 \cdot 1$

$1 \cdot 7$

$3 \cdot 5$

$4 \cdot 5$

$2 \cdot 8$

$3 \cdot 7$

$4 \cdot 4$

$3 \cdot 3$

$1 \cdot 1$

$0 \cdot 1$

5. Hayvonot bog'iga 155 nafar o'quvchi ekskursiyaga bordi. Ulardan 89 nafar kam o'quvchi esa Botanika bog'iga ekskursiyaga bordi. Jami nechta nafar o'quvchi ekskursiyaga borgan?

90. Bir xonali sonlarni 1 ga ko'paytirish



6. Rasmlar bo'yicha savol va ifodalar tuzing.

a)



b)



7. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsating va ifodalarni hisoblang. Amallar tartibidan foydalanib, so'z hosil qiling. Bu so'z qanday ma'noni anglatadi. Shu ma'noni anglatuvchi yana bir so'z tanlang.

$$283 + (700 - 629) - 119 + (800 - 435 + 125)$$

A	490	N	235	Y	354	I	725
G'	365	S	435	O	71	K	623



8. Akbarning tug'ilgan kuni 27-yanvarda, uning do'sti G'ofurning tug'ilgan kuni esa Akbarning tug'ilgan kunidan 13 kun keyin. G'ofurning tug'ilgan kuni qaysi sanada?

Janvar	Fevral	Mar	Apr	May	Jun	Jul	Avg	Sent	Okt	Nov	Dek
30	31	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31
27	28	29	30	31	1	2	3	4	5	6	7
3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28



9. Qonuniyatni aniqlang va jadvalni to'ldiring.

Yan.	Feb.	Mar.	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sen.	Okt.	Noya.	Dek.
31	28			31	30						



10. Amallarning to'g'ri tartibini ko'rsating va hisoblang.
 $900 - (123 + 215) - (500 - (236 + 145))$



11. Yozgi "Do'stlik" oromgohida 445 nafar o'quvchi dam oldi. Bu "Semurg" oromgohida dam olgan o'quvchilardan 189 nafar ko'p. Bu ikki oromgohda jami necha nafar o'quvchi dam olgan?